

DAVRIYADAGI KADENSIYA TURLARI

Xuramov Ulug‘bek Karimjonovich

Termiz davlat pedagogika instituti, Musiqa
mahorati va madaniyati kafedrası katta o‘qituvchisi

xuramov_ulugbek@mail.ru

Anotatsiya: Musiqiy asarlarni tahlil qilish jarayonidagi masalalar, xususan asarlar qismlarini tashkil etuvchi davriyalarning qaysi turga mansubligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada aniq xulosalarga kelish, muammolarga yangicha yondashuvlar qilish kabi ilmiy asoslangan yechimlar maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘z: sezura, musiqaviy fikr, davriya, jumla, kadenisiya, garmonik davriya, turg’un kadensiya, noturg’un kadensiya, mukammal kadensiya, nomukmmml kadensiya.

ВИДЫ КАДЕНЦИИ ЗА ПЕРИОД

Хурамов Улугбек Каримжонович

Старший преподаватель кафедры музыки и культуры Термезского государственного педагогического института

xuramov_ulugbek@mail.ru

Аннотация: Важно выявить проблемы в процессе анализа музыкальных произведений, в частности тип периодов, из которых состоят части произведения. В статье отражены научно обоснованные решения, такие как четкие выводы и новые подходы к проблемам.

Ключевые слова: цесура, музыкальная мысль, период, предложение, каденция, гармонический период, стабильная каденция, неустойчивая каденция, совершенная каденция, несовершенная каденция.

TYPES OF CADENCE IN THE PERIOD

Khuramov Ulugbek Karimjonovich

Termez State Pedagogical Institute, Senior Lecturer, Department of Musical Skills and Culture

xurramov_ulugbek@mail.ru

Abstract: It is important to determine the issues in the process of analyzing musical works, in particular, the type of periods that make up the parts of the work. Science-based solutions, such as drawing clear conclusions and taking new approaches to problems, are reflected in the article.

Keywords: cesura, musical thought, period, sentence, cadence, harmonic period, stable cadence, unstable cadence, perfect cadence, imperfect cadence.

Musiqqa san'atining boshqa san'at turlaridan o'ziga xos xususiyati shundaki bunda aks ettiriladigan badiiy obraz mavzusi yoxud musiqiy fikr vaqt davomida bayon etiladi. Shu bilan birga, ma'no jihatidan bir xil va shakl jihatidan yaxlit musiqqa asari, o'zining ayrim bo'limlarini tashkil qiluvchi tuzimlarga ham bo'linadi. Tuzimlar bir-birlaridan sezura yordamida ajraladi. Sezura bir tuzimning oxirini ikkinchi tuzimning (ularning ko'lamidan qat'i nazar) bosh qismidan ajratib turadigan payt yoxud o'rindir. Sezuraning belgilanishi lotin alifbosidagi V harfiga o'xshaydi. Bu belgi asarlar nota matnlarida qo'llanilmaydi, balki o'quvchilar uchun darsliklarda hamda mashq vazifalarda qo'llaniladi.

Faqat bir mavzuni, bir musiqaviy fikrni ifodalovchi (ko'rsatuvchi) tugal musiqqa tuzimining eng oddiy namunasi davriyadir. Davriya odatda, musiqaviy jumla deb ataladigan ikkita teng cho'zimli to'rt taktli tuzimdan tashkil topadi (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval

Davriya o'z o'rnida 4 turga ajraladi			
Takroriy davriya	Murakkab davriya	Yagona strukturali davriya	Modulyatsiyalovchi davriya

Bir necha akkordning bog'lanib kelishi garmonik davriyani yoxud akkordlar izchilligini hosil qiladi. Bu esa o'z navbati davriya va undagi kadensiyalarning turlarga bo'linishini taqozo etadi. Hattoki yagona strukturali davriyani qolgan davriyalardan farqini aynan garmonik davriyalari orqali aniqlashimiz mumkin.

Kadensiya, kadans italyancha *cadenza*, yunoncha *cadere* hamda lotincha *cado* – yig'ilaman, tugallanaman hamda tugayapman so'zlaridan olingan bo'lib, muayyan musiqa tuzilmasini yakunlovchi garmonik yoki ohang iborasi, kuy yoki akkordlar rivojiga yaxlitlikni baxsh etadi.

Kadensiyaning to'liq, mukammal, o'rta, xotima deb nomlanuvchi turlari mavjud va bular bir-biri bilan tarkibidagi akkordlar izchilligi orqali farqlanib turadi:

2-jadval

Kadensiyaning turlari			
To'liq kadensiya	Mukammal kadensiya	O'rta kadensiya	Xotima kadensiya

Ular asar parchalarini bir-biridan ajratib, ayni vaqtda, musiqa tuzilmalarining o'zaro mantiqan bog'lanishiga ham xizmat qiladi. Qolaversa kadensiya konsert kabi yirik asarlardan o'rin olgan, yakka ijrochi uchun mo'ljallangan erkin shaklli virtuoz musiqa lavhasi vazifasini ham bajaradi. Bunda kadensiya ijrochining yuksak mahoratini namoyish etishga qaratilgan bo'ladi.

Odatda kvadratli deb ataladigan, sakkiz taktli teng cho'zimli jumalardan tuzilgan davriya, o'lchovi jixatidan juda katta axamiyatga ega bo'lgan raqs janrida, skertso, marsh, xorovod qo'shiqlarida juda keng tarqalgandir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek biror musiqa tuzimini tugallovchi va musiqaviy fikr bayonini (yoki uning birorta mustaqil qismini) tugallovchi garmonik davralar kadensiyalar yoki kadanslar deb ataladi. Kadensiyalar davriyadagi o'rniga qarab ham ikki turga bo'linadi: o'rta (birinchi jumlaning oxiri) va xotima (ikkinchi jumlaning oxiri, davriyaning umumiy xotimasi):

L.Betxoven, skripka va f-no uchun sonata, op.2, № 2

Andante a - moll

p *fp* *pp*

t *t sII6* *D* *s6* *DVII9 t6/4 sII6/5 K6/4 D7 t*

1-rasm

Odatda, davriyaning o'rta va xotima kadensiyalari oxirgi akkordning funktsiya xususiyatlariga qarab ham farq qiladi; masalan, birinchi kadensiya D yoki S da (noturg'un funktsiya), ikkinchi kadensiya esa T da (turg'un funktsiya)dir. Bu hol turg'un D (S) ning turg'un T ga tomon masofadan tortilishini xosil qiladi. 1-rasmda keltirilgan misol kabi birinchi kadensiyani ikkinchi kadensiya bilan bog'laydi, bir-biriga buysundiradi, shu bilan o'rtada sezura bo'lishiga qaramasdan, ikki jumlani yaxlit bir musiqaviy fikrga aylantirishga yo'l ochadi:

"Nimra tog'a" chex xalq raqsi

Allegro moderato birinchi jumla

5 ikkinchi jumla

2-rasm

Barcha kadensiylalar garmonik nuqtai nazardan ikki asosiy funktsiya guruhiga bo'linadi: 1-guruhi T bilan tamomlanadigan barqaror akkordli kadensiylarga; 2-guruhi D yoki S bilan tamomlanadigan beqaror garmoniyali kadensiylarga.

Barqaror kadensiylalar o'z navbatida: avtentik, plagal va to'liq kabi uch turga bo'linadi. Jumla yoki davriya oxirida keladigan D – T ning garmonik davralari avtentik kadensiylalar deb ataladi:

M.Glinka, "Ruslan va Lyudmila", III parda

Andantino

E - dur *pp*

T D T

3-rasm

Jumla yoki davriya oxirida keladigan S – T garmonik davralari plagal kadensiylalar deb ataladi:

A.Dargomijskiy, "Bulut tunni o'tkazdi"

Adagio

4-rasm

Jumla yoki davriya oxirida tonikadan oldin ikki noturg'un funktsiya akkordlari bilan, ya'ni S – D – T xolida keladigan gormonik davralari to'liq kadensiya deb ataladi:

M.Glinka, "Ivan Susanin"

Adagio

5-rasm

Beqaror funktsiyali (D yoki S) akkordlar bilan tugallanadigan kadensiya yarim kadensiya deyiladi va bular ham quyidagi ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- 1) birinchi jumla dominanta garmoniyasi bilan tamomlaydigan yarim avtentik kadensiya (1-rasmga qarang);
- 2) birinchi jumla subdominant garmoniyasi bilan tamomlanadigan yarim plagal kadensiya:

N.Rimskiy-Korsakov, "Shaxrizoda"

Andantino

6-rasm

Davriyani tamomlash uchun qo'llaniladigan avtentik kadensiya ko'p zamonlar davomida va ko'p uslubarda asosiy rol o'ynab kelgan. Davriya oxirida keladigan plagal kadensiyalarning ahamiyati kam bo'lganligi uchun ham kamroq ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin. Dastlab bular hayotda mustaqil davrlar shaklida emas, balki davriyaning avtentik tamomlanishidan keyin yoki uning davriyasini kengaytirish uchun, yoxud tonallikni (tonikani) to'liq mustahkamlash uchun qo'shimcha xotima qisim qilib kiritilgan. Shunga o'xshash davriyaning taxminiy shakli quyidagicha:

3-jadval

Davriyaning hajmi 10 taktli shundan	
1 - jumla 4 taktlik	2 - jumla 4 taktli + qo'shimcha plagal kadensiya 2 taktlik

Agar asosiy avtentik kadensiya kvadrat davriyaning odatdagi tugallanishidan oldin kiritilsa (masalan, 7-taktida), bu holda plagal kadensiya tuzimning strukturasini to'liq teng cho'zimli bo'lguncha (ya'ni to'liq sakkiz taktga qadar) to'ldirib boradi (masalan, B.Betxovenning III simfoniyasidagi "Motam marshi"ning birinchi davriyasiga qarang):

A. Varlamov, "Aniq yulduzcha"

Allegretto

G - dur *pp*

D *T*
tugal avtentik kadensiya,


s *T*
qo'shimcha plagal kadensiya

7-rasm

Davriya jumalari qo'shimcha plagal kadensiya tufayligina emas, balki umumiy musiqaviy rivojlanish hisobiga ham notekis cho'zimli bo'lishi mumkin; masalan, birinchi jumla to'rt taktli, ikkinchi jumla olti taktli (V.Motsartning Sol major sonatasidagi o'n taktli davriya singari) bo'lishi mumkin:

V.A.Motsart, f-no uchun sonatasi

Allegro



1-jumla (4 takt)

2-jumla (6 takt)

8-rasm

Yarim avtentik kadensiyalar yarim plagal kadensiyalardan ancha ustunlik qiladi, bu hol dominantaning roli va xususiyatlari bilan tabiiy ravishda bog'liqdir.

Avtentik va plagal kadensiyalar umumiy tugallik darajasiga qarab o'z navbatida mukammal va nomukammal kadensiyalarga bo'linadi.

Oxirgi tonikasi taktning kuchli hissasiga to'g'ri kelgan, asosiy tovushi melodik holatda joylashgan va yo D yoki S asosiy ko'rinishda kelgan (basdan D – T yoki S – T holidagi kadansli kvarta-kvinta bo'lgan) kadensiyalar mukammal kadensiya deyiladi.

Oxirgi tonikasi taktning kuchsiz hissasiga to'g'ri kelgan, tersiya yoki kvinta kuy holatida joylashgan, shuningdek D yoki S aylanmasidan keyingi izchillikda kelsa nomukammal kadensiya deyiladi:

mukammal kadensiyalar

a) b) d) e)

C - dur

D T D - T S T S D T

nomukammal kadensiyalar

a) b) d) e) f)

D T S T D6 T S T S D T

9-rasm

Mukammal kadensiya umuman boshqa tekis vaziyatlarga qarab nomukammal kadensiya nisbatan xotimaning yuksak darajasini beradi. Shuning uchun ham ayrim vaqtlarda davriyaning birinchi jumlasini nomukammal kadensiya bilan, ikkinchi jumlasini esa mukammal kadensiya bilan tamomlanishi mumkin. Jummalarning manashu xildagi xotimalarida biz kadensiyaning oddiy takrorinigina eshitib qolamiz; so'ngra akkordlarning tugallik darajasi xilma-xil bo'lishi tufayli, akkordlar tarkibining o'xshashligiga qaramay, bu kadensiyalar bir-birini to'ldiradi va bir-biriga bo'ysunadi:

V.A.Motsart, "Bahorga intilish"

nomukammal kadensiya mukammal kadensiya

3 (tersiya kuy holatida) 1

F - dur

T - D7 T T - D7 T

10-rasm

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak musiqiy asar ma'lum bir shaklga ega ekanligini aniqlash uchun undagi musiqiy tuzilmalarning funktsiya aloqalariga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shunda asar g'oyasining bayon etilish darajalarini, asarning qism

shakllarini aniqlash hamda tahlil qilish ancha yengillashadi. Bu borada esa musiqiy asar go'yasining ilk bayoni ya'ni davriyaning qanday kadensiyalardan tashkil topganligi ahamiyatli o'ringa egaligini hisobga olish kerak. Musiqiy asarlarning kuylari bayon etiladigan qismi ya'ni davriyasidagi kadensiyalari quyidagi turlarga mansub qo'ladi:

4-jadval

Kadensiyalarning funksiya jihatidan farqlanishi		
Barqaror kadensiyalar	Avtentik kadensiya: D – T	Mukammal - ♪ ¹
		Nomukammal ♪ -
	Plagal kadensiya: S – T	Mukammal - ♪
		Nomukammal ♪ -
	To'liq kadensiya: S – D – T	
Beqaror yoki yarim kadensiyalar	Yarim avtentik kadensiya: ... – D ²	
	Yarim plagal kadensiya: ... – S ²	

Yuqorida ta'kidlaganimizdek musiqiy asarlarni tahlil qilish jarayonini osonlashtirish maqsadida, ayniqsa kuylarning davriyalari qaysi turga mansubligini aniqlash 4-jadval asosida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musurmonqulovna B. F., Khurramov U. ARTISTIC INTERPRETATION OF WORKS FOR THE PIANO IN THE WORKS OF YOUNG COMPOSERS OF THE

¹ “|” bu beldi takt chizig'ini anglatadi. “-” bu belgi shartli ravishda D yoki S funksiyasini, “♪” bu esa T funksiyasini anglatadi. Bundan ko'rinib turibdiki takt chizig'idan oldin kuchsiz hissa, takt chizig'idan so'ng kuchli hissadagi funksiyalarning joylashuvini bilib olishimiz mumkin.

² Birinchi jumla yakuni bo'yicha

- XXI CENTURY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 95-97.
2. Xuramov U. B. K. MUSIQA ASARLARIDAGI DAVRIYA TURLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 198-204.
3. Karimjonovich K. U. THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC THEORY IN MUSIC EDUCATION //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 9. – С. 4-12.
4. Xuramov U. B. K. YOSH MUSIQACHI O ‘QUVCHILARDA MAQOM VA UNING USULLARI HAQIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH NE CHOQ ‘LI AHAMIYATLI //World of Philology. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 25-33.
5. Xuramov U. B. K. VENA KLASSIK MAKTABI YETAKCHISI FY GAYDNNING IJODIGA BIR NAZAR //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 200-207.
6. Khuramov U. K. FORTEPIANO IJROCHILIGIDA GAMMA YORDAMIDA MAQOM USULLARINI O’RGATISH METODLARI. – 2022.
7. Хурамов У. К. ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКОГО МОДУЛЯ ПРИ АНАЛИЗЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ //American Journal of Innovation in Science Research and Development. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 190-196.
8. Xuramov U. B. K. OVOZ YOXUD TOVUSH VA UNI YOZIB OLISHNING TARIXIY TARAQQIYOTIGA QISQACHA TAVSIF //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 238-249.
9. XURAMOV U. ZAMONAVIY NOTA YOZUVIGA QISQACHA TAVSIF //O ‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o ‘rni va ahamiyati. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 160-166.
10. Xuramov U. B. K. QADIMIY O ‘RTA OSIYO XALQ KUYLARINI TASHKIL ETUVCHI QISMLARIGA QISQACHA TAVSIF //World of Philology. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-48.
11. Karimjonovich X. U. B. ZAMONAVIY NOTA YOZUVIGA ASOSLANGAN NOTA YOZUVI //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 14. – С. 453-462.

12. Karimjonovich X. U. QADIMIY KUYLAR VA ULARNI TASHKIL ETUVCHI QISMLAR //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 74-81.
13. Xuramov U. K. et al. QADIMGI KUY NOMLARI //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 6. – С. 390-399.
14. Karimjonovich K. U. et al. Sherna bakhshi's work and its place in sherobod school of friendship //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 4. – С. 13413-13417.
15. Khuramov U. K. Formation, development and history of harmony //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 77-82.
16. Karimjonovich X. U. Important importance of elementary theory of music in the field of music education // Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали. – 2022. – С. 200-204.
17. Khurramov U.K. Processes of formation of performance traditions in folk instruments // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2021. № 9. С. 186–192.